

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”
ADTI rektori **Mas’ud Nazimov**
“ 2025 yil



**FALSAFA
FANI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900000	- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot.
Ta’lim sohasi:	910000	- Sog‘liqni saqlash.
Ta’lim yo‘nalishi:	60910800	- Farmatsiya

Andijon – 2025-yil

Fan/modul kodi FSFB14102	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Falsafa fan sifatida olamdagi voqea-hodisalarning mohiyatini tushunish va ularga munosabat bildirish, insonning o'z hayoti ma'nosi va maqsadini bilish va tanqidiy fikrlash mahoratini shakllantiradi. Falsafa dunyoqarash sifatida "so'zlar, so'zlar va yana so'zlar" orqali inson ongiga ta'sir etadi, unga fikrlash va yo'l tanlash mahoratini o'rgatadi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlardan ijtimoiy – ma'naviy hayotda maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifalari – talabalarning dunyoni bilish va uni o'zgartirishga tanqidiy tafakkur nuqtai nazardan yondashuvi, tabiiy ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyati; texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi; milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o'zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati, to'g'ri fikrning ijobiy maqsadlarga yo'naltirishdagi o'rni; ta'lim falsafasi va falsafa ta'limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni, global korrupsiyaning sabablari, shakllarini bilish va ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas'uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish tuyg'usini shakllantirishdan iborat.</p> <p>I. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-MODUL. FALSAFA</p> <p>1-mavzu. Falsafaning mohiyati va uning jamiyat hayotidagi roli</p> <p>Falsafaning predmeti, asosiy masalalari, tuzulmasi, funksiyalari. Falsafaning paydo bo'lishi va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari.</p>			

Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik va diniy dunyoqarash, falsafiy va ilmiy dunyoqarash, ularning o'aro aloqadorligi hamda o'ziga xosligi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar dunyoqarashida axboriy tahdidlarga qarshi imunitetni shakllantirishda falsafaning ahamiyati.

2-mavzu Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli

Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi vujudga kelishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va farqlari. Qadimgi janubiy Sharq (Hindiston) va Shimoliy sharq (Xitoy) falsafasining mohiyati, loqiyg'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Avesto muqaddas manbasida olamning tuzilishi, shaxs tarbiyasiga oid g'oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati. O'rta asrlarda Sharq va G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Al-Farg'oniy, Al Xorazmiy, Al-Beruniyning tabiiy-ilmiy, axloqiy, siyosiy qarashlarining mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyati. Al-Forobiy, Ibn Sinoning inson tarbiyasiga oid go'yalari va ularning hozirda davdagi ahamiyati. Sharq mutafakkirlari J.Rumiy, G'azzoliy, Nizomulmulk, ar-Roziy, N.Ganjaviy, A.Jomiy, A.Navoiy, M.Ulug'bek, Mashrab, Gulxaniy, Ogahiy, Furqat, Muqumiy, Maxtumquli, A. Donish axloqiy qarashlarining yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasidagi o'rni. Tasavvuf falsafasida olam va odam haqidagi qarashlarning mohiyati. Yu. Hamadoniy, A.Yassaviy, B. Haqshbandiy axloqiy ta'limotining shaxsning ma'naviy kamolotga erishishdagi o'rni. XIX-XX asrda jadidizmning rivojlanishidagi ijtimoiy tarixiy sharoitlar. I. Gaspirali, M. Abdurashidxonov, A. Avloniy, M. Behbudiy, A.Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, U.Nosir ma'rifatparvarlik g'oyalarining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli. XX-XXI asr o'zbek falsafasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ijtimoiy ahamiyati.

3-mavzu. G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri

Qadimgi Yunon falsafa maktablarining fan taraqqiyotiga ta'siri. Geraklitning dunyo o'zgaruvchanligi haqidagi g'oyalarining mohiyati. Sokrat qarashlarining ijtimoiy ahamiyati. Demokritning atomlar haqidagi ta'limotining olam haqidagi qarashlar transformatsiyasidagi o'rni. Platonning davlat boshqaruvi haqidagi g'oyalari. Aristotelning axloq haqidagi qarashlarining hozirgi davrda shaxs tarbiyasidagi ahamiyati. Ilk O'rta asrlarda Yevropa falsafiy tafakkuri rivojlanishining asosiy shakllari: apologetika va patristika. Avgustin ta'limotining olam va odamni tushunishdagi ahamiyati. Sxolastika maktabi g'oyalarining jamiyat

taraqqiyotidagi roli. U.Okam va Foma Akvinskiy ta'limotining jismlar mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. Uyg'onish davri Yevropa falsafasida panteizm, antroposentrizm va dialektikaning rivojlantirilishi. Yangi davr G'arb falsafasida borliq va jamiyatni bilish haqidagi qarashlar talqini. XVIII asr Yevropa ma'rifatparvarlari g'oyalarining axloqiy tarbiyadagi roli. Nemis klassik falsafasining inson mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. XIX-XX asr G'arb falsafasining mohiyati va uning shaxslararo munosabatlarga ta'siri.

XXI asr G'arb falsafasining yo'nalishlari va uning iste'mol jamiyatini shakllantirishdagi o'rni. G'arb falsafasida madaniyat industriyasining tanqidi va psixoanaliz ta'limotining zamonaviy shaxs tarbiyasidagi roli.

4-mavzu. Borliq falsafasi (ontologiya)

Borliq tushunchasining mohiyatiga oid falsafiy va tabiiy ilmiy konsepsiyalar. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Sof borliq g'oyasi. Falsafa tarixida borliq haqidagi qarashlar dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va noosfera haqidagi ta'limotlar, Koevolyutsiya-(ekotizimda o'zaro ta'sir qiluvchi biologik turlarning birgalikdagi moslashish evolyutsiyasi,) va environmentalizm (ekologiya nazariyalarida borliqni asrash g'oyasi). O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy dasturining tabiatni asrashdagi ahamiyati. Borliqda substrat, substansiya va materiyaning o'zaro aloqasi. Materiyaga oid konsepsiyalar tasnifi. Borliqda materiya harakatining mohiyati, tiplari va shakllari. Borliqda makon va vaqtning substansional, relatsion, dinamik va statik konsepsiyalari. Makon va vaqtning topologik va metrik xossalari. Ijtimoiy makon. va ijtimoiy vaqt dialektikasi.

5-mavzu. Rivojlanish falsafasi.

Borliqda narsa va hodisalarning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi, rivojlanishi va taraqqiyotining o'zaro aloqadorligi. Rivojlanish qonunlarining mohiyati, ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Falsafa kategoriyalarining tasnifi va ularning rivojlanish jarayonlaridagi roli. Rivojlanishda borliqning chekliligi va cheksizligi, potensial va aktual cheksizlik. Borliqning birligi va rang barangligi. Borliqning rivojlanishida geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar, kengayuvchi olam, universal kosmik gologramma, torsion maydonlar haqidagi ilmiy dalillar. Qizil siljish nazariyasining rivojlanish va o'zgarish jarayonlariga ta'siri. In'ikos nazariyasi va uning rivojlanish jarayonidagi o'rni. R.Anoxin in'ikos nazariyasining mohiyati.

6-mavzu Bilish falsafasi

Bilish jarayonining mohiyati va mezonlari. Bilish va bilimga oid

yondashuvlar tasnifi: sensualizm, empirizm, ratsionalizm, otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizm. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi. Bilishning faoliyat turi sifatida o'zgaruvchanligi. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv bilish darajalari. Haqiqat bilishning mezoni. Isbotlash va rad etish, yolg'on va yanglishishning haqiqatni bilishdagi roli. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning ma'naviy qadriyatlari. Amaliyot haqiqatning mezoni. Metod, metodika metodologiyaning o'zaro aloqasi va farqi. Bilish metodlarining tasnifi, o'zaro aloqasi va farqi. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi.(Kumatoid, keys stadi, abduksiya). Bilish jarayonida tushunish va tushuntirishning roli. Simvol va semiotik belgilarning ma'noni ahglashdagi ahamiyati.

7-mavzu. Mantiq.

Mantiqning mohiyati. Formal, noformal, dialektik, matematik mantiqning o'zaro aloqasi. Mantiqiy semantikaning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Mantiq va ritorika, til va mantiq dialektikasi. Tafakkur qonunlari va shakllari. Tafakkur va til mutanosibligi. Tushuncha tafakkur shakli. Tushunchaning turlari va ular orasidagi aloqalar. Hukmning mohiyati va qoidalari. Bo'linishning mohiyati, turlari va qoidalari. Oddiy hukmlarning turlari va tarkibi. Qat'iy hukmlarning tasnifi. Murakkab hukmlar. Deduktiv xulosa chiqarishning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Bo'linuvchi kategorik xulosa, shartli ajratuvchi xulosa. Sillogizm nazariyasi. Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizm. Induktiv xulosa. Ommabop induksiya. Ilmiy induksiya. Analogiya bo'yicha xulosa. Analogiya turlari. Argumentatsiya (mantiqiy asoslar)ning tarkibi, sub'yektlari, tuzilishi. Bahslashish usullari, asoslash va tanqid qilish. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'rni. Tanqidiy tafakkurning mantiqiy xulosa chiqarishdagi roli. Gipotezaning mohiyati, turlari, gipotezani tekshirish. Savollar va javoblar mantig'i. Savollar va javoblar turlari.

8-mavzu. Jamiyat falsafasi

Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Jamiyatning paydo bo'lishiga oid qarashlar dinamikasi. Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari, mulk, moddiy ishlab chiqarishning mohiyati. Xususiy tadbirkorlik va asoslari. Davlat boshqaruvi shakllari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya. Jamiyat rivojining ma'naviy asoslari. Ma'naviy hayot mezonlari. Ma'naviy kamolot omillari. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy birliklar va guruhlar,

etnik birliklar, tabaqalar, sinflar, hududiy guruhlar. O'zbekistonda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiyaning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta'siri. O'zbekistonda "Yangi ma'naviy muhit yaratish" va "Ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi.

9-mavzu. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat

Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Sivilizatsiya va madaniyat mutanosibligi. Madaniyat tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. Madaniyatning ichki tuzilishi. Madaniyatning subyekti. Madaniy faoliyat dinamikasi. Madaniy predmetlilik va madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati. O'zbek madaniyati va etnomadaniyat dialektikasi. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati. XXI asrda an'anaviy va zamonaviy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati va ularning axloqiy tarbiyadagi o'rni.

10-mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)

Falsafa tarixida insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Inson mohiyatiga fan nuqtai nazaridan yondashuv. Inson, individ, shaxs tushunchalarining o'zaro aloqadorligi. Ongning mohiyati, strukturasi va funksiyalari. Onglilik va ongsizlik dialektikasi. Insonning bioijtimoiy, psixologik mohiyati. Falsafiy antropologiyaning inson haqidagi ta'limot sifatidagi mohiyati. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Hayotni tark etish bosqichlari (suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Faoliyatda onglilik va maqsadga muvofiqlik. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijod faoliyat turi. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati. Inson-jamiyat-davlat tamoyilining falsafiy mazmuni.

11-mavzu. Qadriyatlar falsafasi

Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tavsifi. Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi. Ehtiyojlar va qadriyatlar dinamikasi. Qadriyatlarining turlari (umuminsoniy, milliy, shaxsiy qadriyatlar). Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlikning qadriyatiy jihatlari. Oiladagi ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Gender tengligini ta'minlashda inson mehnati qadrlanishining ahamiyati. Mahalla – o'zbek milliy qadriyati sifatida.

Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Oila-ta'lim-mahalla tizimi. Qadriyatlarning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati va yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Qadriyatlarni baholash. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarning transformasiyasi. Sog'likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari. Jamiyatda qadrlanish va qadrsizlanish jarayonlari.

12-mavzu. Etika

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy axloqning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikaning asosiy kategoriyalari. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Sharq va G'arb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqning shakllanishiga oid genetik va diniy yondashuvlar tasnifi. Gedonizm va evdomonizm ta'limotlarining axloqiy tarbiyaga ta'siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy axloq va mehnat etikasi: komp'yuterdan foydalanish etikasi, bloger etikasi, xaker etikasi, kiberetika, tibbiy etika, yuridik etika, kutubxona etikasi, ijtimoiy hayot etikasi. Siyosat va axloq o'rtasidagi munosabat. Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati. Ekologik etika. Ishbilarmonlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika.

13-mavzu. Estetika

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyusiyasi. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta'siri. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetika va san'at. San'atning funksiyalari. Amaliy san'atning estetik jihatlari. Estetika va dizayn. Reklamaning estetik didni tarbiyalashdagi roli. Xalq amaliy san'atining estetik jihatlari. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. San'atdagi inqiroz (dehumanizatsiya).

2-MODUL. GLOBAL JARAYONLAR DIALEKTIKASI

14-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi

Globalashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning mezonlari va darajalari. Globalashuvning fundamental asoslari va xususiy jihatlari. Global muammolarning tasnifi: urush va tinchlik, demografiya, migratsiya, ta'lim, energetika, ekologiya, oziq-ovqat, urbanizatsiya. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning globalashuvi va uning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni. Global etika muammolari. Global

makonda texnika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va virtual reallikning mutanosibli. Nanotexnologiyalar va biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar mutanosibli.

15-mavzu. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyatda namoyon bo'lishiga oid qarashlar tasnifi. Korrupsiyaning sabablari. Korrupsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko'rinishlari va uning axloqiy tarbiyaga salbiy ta'siri. Siyosiy, g'oyaviy va iqtisodiy korrupsiya – xavfsizlikka tahdid. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to'qnashuvi oqibati sifatida. O'zbekistonda korrupsiyaning turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm va mahalliychilikni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati va shaxsiy mas'uliyatning o'ri. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning yo'nalishlari va huquqiy asoslari. Korrupsion jinoyatlarning oldini olish shakllari va asosiy yo'nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba. O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorligining maqsadlari va yo'nalishlari. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda OAVning o'ri va axloqiy ahamiyati.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Falsafaning mohiyati va uning jamiyat hayotidagi roli
2. Sharq falsafasi va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli
3. G'arb falsafasining ustuvor yonalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri
4. Borliq falsafasi(Ontologiya)
5. Rivojlanish falsafasi
6. Bilish falsafasi (gnoseologiya)
7. Mantiq
8. Jamiyat falsafasi
9. Tarix falsafasi sivilizatsiya va madaniyat
10. Inson falsafasi
11. Qadriyatlar falsafasi
12. Etika
13. Estetika

14. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi
15. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Falsafaning mohiyatiga oid Sharq va G'arb mutafakirlari ta'riflarini tasniflash va ular bo'yicha prezentatsiya tayyorlash.
2. Senekaning "Lutsiliyga axloqiy xatlari" asarini o'qish va xatlar asosida talabalarning o'z hayoti va faoliyatiga baho berilgan esse tayyorlash.
3. Abu Nasr Forobiy va G'azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning "Siyosat falsafasi va G'azzoliyning "Kimyo saodat" asarlari asosida).
4. Noklassik ontologiyaning yo'nalishlari va mohiyati bo'yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari asosida).
5. "Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalarning tasnifi" mavzusida esse tayyorlash, (krossvord tayyorlash).
6. A.Fitratning "Oila asari"dagi oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasida oid g'oytalar bo'yicha esse tayyorlash..
7. A.Fitratning "Rahbari najot" risolasidagi "Baxtsiz odamlarning ikki toifasi"ga oid qarashlari bo'yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o'tkazish.
8. Avloniyning "Madaniyat to'lqinlari" maqolasi va E.To'fflarning "Uchinchi to'lqin" asarini qiyosiy tahlil etish, prezentatsiya tayyorlash.
9. "Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari" mavzusida videorolik tayyorlash.
10. "Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati" mavzusida esse tayyorlash.
11. "Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar mavzusida videorolik tayyorlash.
12. "Dunyo xalqlari miflari" haqida krossvord tayyorlash.
13. J.Rumiyning "Ovchi va Lochin" rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil etish.
14. "Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari"

	<p>mavzusida esse tayorlash.</p> <p>15. “Koevolyutsiya va nvironmentalizm dialektikasi” mavzusida esse tayyorlash (O‘zbekistonda qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o‘simliklar haqida ma’lumotlarni aniqlash) O‘zbekiston tabiyati mavzusida krossvord tayyorlash.</p> <p>16. M. Behbudiyning “Yoshlarga murojlat” va “Muhtaram yoshlarga murojaat”</p> <p>17. Makiavellining “Xukmdor” asari bo‘yicha taqdimot tayyorlash.</p> <p>18. G‘azzoliyning “Tavba asarining tahlil etish va talabarning o‘z faoliyatida mavjud ofatlarinin aniqlash va o‘ziga baho beruvchi esse tayyorlash.</p> <p>19. Ibn Tufayl va Ibn Sinoning “Xay ibn Yakson o‘g‘li” risolasini qiyosiy tahlil etish va esse tayyorlash.</p> <p>20. “Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlarini” mavzusida viktorina o‘tkazish, video roliklar tanlovini tashkil etish.</p> <p>21. “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari” mavzusida esse tayyorlash.</p> <p>22. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari bo‘yicha jamiyat boshqaruviga oid g‘oyalarni tahlil etish va esse tayyorlash.</p> <p>23. S. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarini o‘qish va mohiyati bo‘yicha esse tayorlash.</p> <p><i>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i></p>
3.	<p>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • dunyo haqidagi eng qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o‘rganish asosida professional faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg‘usini shakllantirish; ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O‘rta asrlar va Yangi davr G‘arb falsafasining asosiy g‘oyalari, Sharq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi roli, G‘arb falsafasi oqimlarining falsafiy mazmun-mohiyatini, G‘arb renessansining mohiyati, uning shakllanishiga o‘rta asr Sharq ilm-fani va falsafasining ta’sirini, Yangi va eng yangi davr G‘arb falsafasining muhim xususiyatlari bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lishi; • yangi ontologiyaning yo‘nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyatini, fizik va falsafiy ontologiyaning o‘zaro aloqasi va farqlarini, axborotlashgan

	<p>jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'ri, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilishi, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, kiberterrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillarini, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati ekanligini bilishi, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtira olish, tana va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy nazoratni oshirish va shaxsiy mas'uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.667-b. 2. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b

3. Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: Innovasion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021. – 424 b.

4. Madaeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019

Чумаков А.Н. Философия, учебник.– М.: INFRA. 2018.– 320 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.

7.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz

8.Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017.

9. Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши кураш стратегияси/Алиев Б, Мухтаров А., Норов Т., / ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. – 320 б.

10.Nishonova O.Dj. O'zbek etnomadaniyatining estetik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2023

11.Раматов Ж. Лойко А., Жоголь Н., Кушаков Ф. Основные проблемы философии. –Ташкент: 2022

12.Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г, Алиматова Н., Эрназаров Д, Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Ташкент: Innovasion rivojlanish nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с.

13.Хакимов N.X. Amriddinova D. Jadidchilik ta`limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati.–Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

14. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003

15. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish –Toshkent: Innovasiya – Ziyo, 2024.

Kafedrada yaratilgan o'quv qo'llanma, elektron darslik va monografiyalar:

16. O'roqova.O.J. Sharq romantizmining estetikasi: vorisiylik. Monografiya–Andijon: Grand kondor print, 2024

17. O'roqova.O.J. Axloq falsafasi. O'quv qo'llanma. Andijon: Janona nashr, 2025

18. O'roqova.O.J. Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli. O'quv qo'llanma. Andijon: Janona nashr, 2025

19. O'roqova O.J. Falsafa. Darslik. Toshkent. Ilm-ziyo zakovat. 2025.

7.	Fan dasturi Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashiningn 2025-yil “ _____”-_____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas`ullar: O‘roqova O.J- Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası mudiri , f.f.d. Azimov A.A- Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: ADTI tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) A.M.Sattarov Fardu professori falsafa fanlari doktori (DSc), I.B.Siddikov

